

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (16)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Қозимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Akbarov Ravshan Xalimovich JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	Ахрарова Амалия Искандеровна ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	Israilov Nodir Raximjonovich XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	Kandaxarov Anvarjon Xasanovich BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	Mamajonov Soyibjon Xalilovich AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TO'SKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ORTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGI-XITOIY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	Raxmankulova Matluba Bayxurazovna XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	Razzokova Nigora Olimjon kizi INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	Sadirov Aziz Sirojiddinovich MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRAUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Mamajonov S. X.

«Harbiy ta'lim» fakulteti

maxsus tayyorgarlik sikli o'quv dotsenti

Farg'ona davlat universiteti

mamazonovsoibzon28@gmail.com

AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA

ANNOTATSIYA

Maqolada XIX asrda yashagan nemis tarixchisi Yozef fon Xammer-Purgshtalning "Qipchoqdagi Oltin O'rda tarixi, ya'ni: Rossiyadagi mo'g'ullar" asarida Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi munosabatlarning boshlanish va rivojlanish davriga oid qayd etgan ma'lumotlari tadqiq etilgan. Shuningdek, nemis sharqshunosi tomonidan ikki hukmdor o'rtasida sodir bo'lgan "Qunduzcha jangi" bo'yicha bildirgan munosabati temuriylar davri manbalar orqali tahlil etilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va muammoviy xronologik metodlaridan foydalanilgan. Nemis orientalisti tomonidan Sohibqiron tashqi siyosatida Oltin O'rda davlatining tutgan o'rni va ro'li masalasida bildirgan fikrlar manbalar asosida tadqiq etilib, xato va kamchiliklari yuzasidan mulohaza yuritilgan. Yozef Xammer tomonidan Amir Temurning "Qunduzcha jangi" mobaynidagi faoliyati to'liq yoritilmaganligi manbalardagi ma'lumotlar orqali to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, To'xtamishxon, Umarshayx Mirzo, Nizomiddin Shomiy, Ahmad Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Muiniddin Natanziy, Xondamir, Yozef Xammer, Oq O'rda, Oltin O'rda, "Dasht yurishi", "Qunduzcha jangi".

KIRISH

Amir Temur tarixini o'rganishda Avstriya sharqshunoslik ilmiy maktabi jahonda o'z o'rniga egadir. Ayniqsa mazkur davlatda XIX asrdan boshlab Sharq tarixini o'rganishga va sharqshunos olimlarning yetishib chiqishi yangi boshqichga chiqdi. Ana shunday sharqshunoslardan biri Yozef fon Xammer-Purgshtal (1774–1856) bo'lib, sharq tarixiga oid ko'plab asarlar yaratgan va tarjima qilgan [3; 1]. Orientalist "Qipchoqdagi Oltin O'rda tarixi, ya'ni: Rossiyadagi mo'g'ullar" [2] nomli asarida, Chingizxon, Hulaguxon Chig'atoyxon, kabi hukmdorlar qatorida Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi munosabatlarga ham to'xtalib o'tgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Tadqiqotning sakkinchi kitob XXIX paragrafidagi To'xtamishxon va Amir Temur munosabatlarning ilk ko'rinishiga urg'u berilgan. Jetaga beshinchi yurish bilan band bo'lgan Amir Temur Oq O'rda shaxzodasini kutib olish uchun Temurbek o'zbekni yubordi va o'zi ortga qaytib, huzuriga olib kelingan To'xtamishxonni yuksak izzat-ikrom va cheksiz ehtirom bilan kutib oldi [2:331]. Amir Temur O'rusxon va uning o'g'illari bilan bo'lgan janglarda To'xtamishxon bir necha martoba qo'llab-quvvatlab unga katta qo'shin berdi. Biroq mazkur

to‘qnashuvlarning barchasida To‘xtamishxon mag‘lubiyatga uchragan [2:331-333]. Darhaqiqat, Amir Temur huzuriga bo‘lajak Oltin O‘rda hukmdori 1376-yilda qochib kelgan bo‘lib, Sohibqiron To‘xtamishxonni Oq O‘rda yetakchilariga qarshi olib borgan barcha janglariga homiylik qilgan. Ikki hukmdor o‘rtasidagi munosabatlarning boshlanish davrini Yozef Xammer temuriylar davri manbalaridagi ma‘lumotlarga monand yoritgani diqqatga sazovordir [5:106; 8:85]. Mazkur asarining XXXI paragrafida esa nemis sharqshunosi, To‘xtamishxonning mag‘lubiyatlari Amir Temurni tashvishga solib qo‘yganligini ta’kidlab, quydagi fikrlarni bildirgan. “To‘xtamish O‘rusxon va uning o‘g‘illari tomonidan shunchalik ko‘p marta mag‘lubiyatga uchraganki, uning himoyachisi Temur deb yozadi, – Yozef Xammer – To‘xtamish Qipchoqdagi taxtga loyiqmi-yo‘qmi, degan savolni o‘zi oldida qo‘yishi tabiiy edi. Shu sababli Temur, o‘ziga katta ishonch bildirgan O‘zbek Timur bilan maslahatlashdi. O‘zbek Timur avval O‘rusxon bilan birinchi jangda asir olinib, undan keyin Temur Malik huzuriga kelib afv etilgan va keyinchalik Temurga qochib kelgan edi [2:331-333]. Darhaqiqat O‘rung Temur nomi bilan qayd etilgan Oq O‘rdalik amirning Amir Temur huzuriga qochib kelganligi manbalarda bayon etilgan [5:103-106; 8:82-84; 4:194-198; 6:99-100; 7:89-92]. Sohibqiron O‘rung Temurdan Oq O‘rda xoni Temur Malikning salbiy jihatlari avj olganligini eshitgach, darhol To‘xtamishxonga yurish qilishni buyurgan. Voqealarni ijobiy tahlil qilgan Yozef Xammer, Amir Temurning To‘xtamishxonga nisbatan munosabatining burulish nuqtasi haqidagi vaziyatga to‘g‘ri baxo bergani diqqatga sazovordir.

Yozef Xammer mazkur asarining “To‘xtamish” nomli XXXIII paragrafida Sohibqironning Oltin O‘rda hukmdori bilan olib borgan kurashlarini yoritgan. Nemis orientalistining ta’kidlashicha, Oltin O‘rda hukmdorining 1389-yildagi Movarounnahrga qilgan hujumi bartaraf qilgan Amir Temur Sirdaryo bo‘yida raqib hujumlarini kutmay, dushmani o‘z hududida izlab topish va g‘alabali lashkari bilan Qipchoqqa bostirib kirishni reja qilganligini bayon qiladi [2:343]. Shu tufayli Sohibqiron 1391-yilning 19-yanvarida Toshkendan “Dasht yurishi”ga yo‘lga chiqqan. Qorasomon mavzeiga 21-fevralda yetib kelgan Amir Temurning huzuriga To‘xtamishxon elchilari tashrif buyurishgan. Temur nutqida deb yozadi, – Yozef Xammer – elchilarga ularning xo‘jayinining noshokrligini ro‘kach qildi: u (Amir Temur – ta’kid bizniki, S.M) O‘rusxonga qarshi uni (To‘xtamishxon – ta’kid bizniki, S.M) himoya qilganini, Qipchoq taxtiga o‘tqazganini, ammo u esa o‘z homiysining uzoq yurishlarda yo‘qligidan foydalanib, xiyonatkorona tarzda uning yurtiga bostirib kirganini aytdi. Agar uning tavbasi va kechirim so‘rashi chin bo‘lsa, u holda vaziri Alibekni yuborsin, toki u lashkardagi ulug‘ amirlar bilan muzokara olib borsin, dedi. Elchilarni sovg‘alar bilan siylab yuborildi, yaxshi muomalada bo‘lindi, biroq bir vaqtning o‘zida diqqat bilan kuzatib borildi [2:345-346]. Sohibqironning “Dasht yurishi” boshlanishi davrida ikki hukmdor o‘rtasida sodir bo‘lgan voqealarni yoritishda manbalardagi ma‘lumotlarni tahlil etib, o‘zining ijobiy munosabatini bildirgan Yozef Xammerning mazkur mulohazasi ilmiy jihatdan yuqori ahamiyatga egadir [5:157-158; 8:130-131; 4:147; 6:114; 7:127-128]. Nemis sharqshunosi “Dasht yurishi”ning tafsilotlari haqida o‘z so‘zini davom ettirib, 1391-yilning 21-fevralida Amir Temur qo‘shinlar Yassi, Qorajuq,

Sabron yoʻnalishida yoʻlga chiqqanligini taʼkidlagan. Sariq oʻzan, Ulugʻ togʻ hududlarini bosib oʻtilgach, Amir Temur lashkari Tobol daryosi boʻyiga yetib kelishgan. Yozef Xammerning taʼkidlashicha, mazkur daryodan kechib oʻtish mumkin boʻlgan joylar dushman tomonidan buzib tashlangach, Sohibqiron oʻz askalariga daryoni shox-shabbalar bilan toʻldirishni buyurgan [2:346-348]. Shu tariqa Turon lashkari oʻz yurishini davom ettirgan.

Shuningdek, Yozef Xammer Amir Temurning “Dasht yurishi” haqidagi oʻz mulohazasini davom ettirib, ikki tomon oʻrtasidagi yakunda sodir bolgan “Qunduzcha jangi” toʻgʻrisida ham soʻz yuritgan. Nemis sharqshunosining fikricha, ushbu jangda Toʻxtamishxonning qoʻshin soni Amir Temurning lashkari soniga nisbatan koʻp boʻlgan. Shu bois, oʻz qoʻshini ruhiyatini koʻtarish maqsadida Sohibqiron bir tadbir uyushtirgan. Dushmanlarining koʻz oʻngida ulardan qoʻrqmasligini koʻrsatish maqsadida Amir Temur oʻz askalariga chodirlarni tiklashni buyurgan. Soʻngra namoz oʻqib, sodir boʻlajak toʻqnashuv uchun Allohdan madad soʻragan. Mazkur vaziyatni koʻrgan Toʻxtamishxon va uning lashkari taajjublanishgan [2:351]. Darhaqiqat, temuriylar davri manbalarida Oltin Oʻrda hukmdorining askalari soni juda koʻp boʻlganligi bayon etilgan. Ushbu jarayon yuzasidan muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy quydagi maʼlumotlarni ham yozib qoldirgan. “Dashtdagi muholiflardan ancha cherik ettikim, oqillar aning xisobidan ojiz edilar” [8:138]. Shuningdek, Yozef Xammerning jangdan avval Sohibqiron raqibiga psixologik bosim qilganligi toʻgʻrisidagi mulohazasi manbalardagi maʼlumotlar asosida qayd etilgan [5:165; 8:130-131; 7:135-136]. “Qunduzcha jangi” jarayonlari yuzasidan oʻz fikrini davom ettirgan nemis sharqshunosi, ushbu toʻqnashuv boshlanishidan avval, besh kun davomida muttasil kuchli yomgʻir yogʻganligi, bu esa ikki tomon askalarining jangni boshlashiga toʻsqinlik qilganligini taʼkidlaydi. Soʻngra bulutlar tarqab, toʻqnashuv vaqti kelganida Sohibqiron birinchi marta oʻz qoshinining besh boʻlinma tuzilishini yetti boʻlinmaga oʻzgartirdi, Toʻxtamishxon esa oʻz lashkarini uch qismga boʻlib yarim oy koʻrinishida joylashtirgan [2:351]. Yozef Xammerning mazkur mulohazidan shuni taʼkidlash mumkinki, ob-havo sabab toʻqnashuvning kechikishi Sohibqironning manfaatiga hizmat qilgan. Ushbu vaziyatda vaqtdan unumli foydalangan Amir Temur Toʻxtamishxon lashkarining joylashish tartibi haqidagi maʼlumotlarni qoʻlga kiritishga muvaffaq boʻlgan. Shu tufayli, Sohibqironni jang boshlanishidan biroz avval oʻzining harbiy taktikasini oʻzgartigan deb aytish mumkin. Toʻxtamishxon ham toʻqnashuvga qadar Amir Temur oʻz lashkarini uch qismga boʻlgan tarzda jangga kirishiga ishongan. Bizningcha, Toʻxtamishxon Sohibqironning mazkur rejasidan xabardor boʻlganda shunga munosib tayyorgarlik qilishi mumkin edi. Biroq, besh kun yoqqan kuchli yomgʻir raqibini yakson qilish uchun Amir Temurga yetali boʻlib, ushbu harbiy rejasi tufayli gʻalabaga erishishga muvaffaq boʻlgan. Garchi Yozef Xammer jang tafsilotlarini aynan biz tahlil qilgan koʻlamda bayon qilmagan boʻlsa-da, Sohibqironning “Qunduzcha jangi” uchun tuzgan rejasi boʻyicha bugungi kun uchun ilmiy ahamiyati yuqori mulohazalarni bildirgani muhimdir.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, Yozef Xammerning ushbu asarida Amir Temur va To’xtamishxon o’rtasidagi munosabatlarning boshlanish va rivojlanish bosqichlari uchun ilmiy ahamiyati yuqori fikrlar o’rin olgan. Ayniqsa, Amir Temur tomonidan Oq O’rda shaxzodasining qo’llab quvvatlashiga oid muhim fikrlarni ta’kidlagani XIX asr temurshunosligi uchun ulkan yutuqdir. Shuningdek, nemis sharqshunosi Amir Temurning “Dasht yurishi”ni boshlanishiga oid mulohazalari va mazkur yurishning tafsilotlarini haqidagi fikrlari ham temuriylar davri manbalaridagi ma’lumotlar asosida bayon qiliganligi ham e’tiborga molikdir. Yozef Xammer Amir Temur va To’xtamishxon o’rtasidagi munosabatlaridagi eng asosiy to’qnashuvlaridan biri bo’lgan “Qunduzcha jangi” haqida so’z yuritib, mazkur jangning boshlanishiga oid ijobiy ma’lumotlarni qayd etgan. Biroq nemis sharqshunosi, “Qunduzcha jangi”ning borishi va yakuni haqida asosiy ma’lumotlarni bayon etmagan. Garchi Yozef Xammer “Qunduzcha jangi”ni batafsil yoritmagan bo’lsa-da, mazkur to’qnashuv uchun Sohibqiron tomonidan qo’llanilgan qo’shinni “Yetti qism”ga bo’lib hujum qilish taktikasini g’alabaning kaliti bo’lganligini ta’kidlagani XIX asr temurshunoslik davri uchun muhim yangiliklaridan biri bo’lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Geschichte der Ilchane, das ist der Mongolen in Persien: Band 1. – Darmstadt, druck und verlag von Carl Wilhkim Leske, 1842. – 435 p.
2. Xammer J. Geschichte der Golden Horde in Kiptschak das ist: der mongolen in Russland. – Pesth, C. A. Hartleben’s Verlag, 1840. – 683 p.
3. Xammer J. Geschichte des osmanischen Reiches:größtentheils aus bisher unbenützten Handschriften und Archiven. Von der Gründung des Osmanischen Reiches bis zur Eroberung Constantinopels, 1300 - 1453: Mit einer Karte. – Perth, Conrad Adolph Hartleben’s Verlag, 1834; 10 vol; Constantinopolis und der Bosphoros, örtlich und geschichtlich beschrieben. – Pesth, Hartleben’s Verlag, 1822. – 626 p.
4. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Ғулом Каримий – Тошкент: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.
5. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўғирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўғирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.
6. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. предис. примеч. и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – 346 с.
7. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазраткулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Тошкент: Ўзбекистон. 2013. – 1272 б.

8. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.

Мамаджонов С. Х.

Доцент учебного цикла
специальной подготовки «Военного факультета»
Ферганский государственный университет
mamazonovsoibzon28@gmail.com

ОТНОШЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА И ТОХТАМЫШХАНА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЙОЗЕФА ФОН ХАММЕРА-ПУРГШТАЛЯ

АННОТАЦИЯ

В статье исследованы сведения, приведённые немецким историком XIX века Йозефом фон Хаммером-Пургшталем в его труде «История Золотой Орды в Кипчаке, или: Монголы в России», касающиеся периода начала и развития взаимоотношений между Амиром Темуrom и Тохтамыш-ханом. Кроме того, проанализирована позиция немецкого востоковеда по вопросу «Кундузчинской битвы», произошедшей между двумя правителями, на основе источников эпохи Темуридов. В исследовании использованы методы сравнительного анализа и проблемно-хронологический метод. На основе источников изучены взгляды немецкого ориенталиста на место и роль государства Золотой Орды во внешней политике Сахибкирана, а также рассмотрены его ошибки и недостатки. Отмечается, что Йозеф Хаммер неполно осветил деятельность Амира Темура во время «Кундузчинской битвы», что было рассмотрено с опорой на сведения исторических источников.

Ключевые слова: Амир Темуr, Тохтамыш-хан, Умаршейх Мирза, Низамуддин Шами, Ахмад Ибн Арабшах, Шарафиддин Али Язди, Муинуддин Натанзи, Хандамир, Йозеф Хаммер, Белая Орда, Золотая Орда «Степной поход», «Битва при Кундузе».

Mamajonov S. Kh.

Associate professor at the Special Training Cycle

«Faculty of Military Education»

Fergana State University

mamazonovsoibzon28@gmail.com

THE RELATIONS BETWEEN AMIR TEMUR AND TOKHTAMYSHKHAN IN THE INTERPRETATION OF JOSEPH VON HAMMER-PURGSTALL

ABSTRACT

The article examines the information recorded by the German historian of the 19th century, Joseph von Hammer-Purgstall, in his work “The History of the Golden Horde in Kipchak, or: The Mongols in Russia” concerning the period of the beginning and development of relations between Amir Temur and Tokhtamysh Khan. Furthermore, the German orientalist’s views on the “Battle of Qunduzcha,” which took place between the two rulers, are analyzed based on sources from the Timurid period. The study employs comparative analysis and problem-chronological methods. The opinions expressed by the German orientalist regarding the place and role of the Golden Horde state in Sahibqiran’s foreign policy are examined on the basis of historical sources, and his errors and shortcomings are discussed. The article also highlights, through information from historical sources, that Joseph Hammer did not fully cover Amir Temur’s activities during the “Battle of Qunduzcha”.

Keywords: Amir Temur, Tokhtamysh Khan, Umarshaykh Mirza, Nizamuddin Shami, Ahmad Ibn Arabshah, Sharafiddin Ali Yazdi, Muinuddin Natanzi, Khandamir, Joseph Hammer, White Horde, Golden Horde, “The Steppe Campaign”, “Battle of Kunduzcha”.